

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BADIIY GRAFIKA FAKULTETI
«MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

**«Buxoro ganchkorligining geometrik yasashlarga oid
masalalarning bajarilish uslubiyoti» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Tasviriy san`at va
muhandislik grafikasi» ta`lim
yo`nalishi 4-B guruh talabasi
YU.Narzullaeva_____

ILMIY RAXBAR:
Dots. T.R.Sobirov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2015 yil

BUXORO – 2015 y

Mavzu: Buxoro ganchkorligining geometrik yasashlarga oid masalalarning bajarilish uslubiyoti

Reja:

Kirish..... 3

I BOB. O'ZBEKISTONDA GANCH O'YMAKORLIGI

SAN`ATINING RIVOJLANISHI

1.1-§. Ganch o'ymakorlik san`ati, uning tarixi va O'zbekistonda rivojlanishi..... 5

1.2-§. Ganch o'ymakorlik turlari, uni tashkil etish va unga bo'lgan talablar.....32

1.3-§. Ganch o'ymakorlik maktablari.. 47

II- BOB. NAQSH ELEMENTLARINI CHIZISH

2.1-§. Ganch o'ymakorlikda naqsh va uning turlari..... 77

2.2-§. Ganch o'ymakorlik san`atining yoshlarga o'rgatilishi.....93

Xulosa.....98

Adabiyotlar ruyxati..... 103

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Amur Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezaganlar. Kishilarning go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

Tadqiqot maqsadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabda chizmachilik darslarida Buxoro ganchkorligining geometrik yasashlarga oid masalalarning bajarilish uslublarini tadbiq etishdan iborat

Tadqiqot vazifalari:

1. Chizmachilik o'quv dasturi, darslik va qo'llanma va maktab o'qituvchilariga mo'ljallangan metodik adabiyotlar tahlili orqali mavjud muammo holatini aniqlash.
2. Ganchkorlikning geometrik yasashlarga oid masalalarning bajarilish **usullari asosida bilim berish metodikasi** mazmun mohiyatini ilmiy metodik jihatdan tahlil qilish.
3. **Ganchkorlikni tashkil etishda** real narsalar misolida o'qitish metodikasini ishlab chiqish.

4. Ganchkorlikning geometrik yasashlarga oid masalalarning bajarilish **usullarini** kompyuter vositasida o'qitish usullarini yaratish. (AutoCAD, archiCAD grafik dasturlari asosida)

5. Ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob`ekti. Ganchkorlikning geometrik yasashlarga oid masalalarni bajarish usullari.

Tadqiqot predmeti. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Buxoro ganchkorligining geometrik yasashlarga oid masalalarning bajarilish uslubiyoiti **asosida bilim berish metodikasi.**

Tadqiqotning ilmiy farazi. Buxoro ganchkorligining geometrik yasashlarga oid masalalarning bajarilish usullarini **joriy etish mumkin.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Nazariy tadqiqot natijalari chizmachilik ta'limi uchun yangi turdagi didaktik materiallar ishlab chiqishga imkon beradi. SHuningdek, natijalardan oliy va o'rta maxsus ta'lim jarayonida hamda, chizmachilik o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. kirish, ikki BOB, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning hajmi 98 sahifani tashkil etadi.

I BOB. GANCH O'YMAKORLIGI SAN`ATI

Ganchkorlik qadimiy san`at turlaridan biri bo`lib, o`z aksini dunyo me`morchiligida, jumladan, O`rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston va boshqa SHarq me`morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, O`rta Osiyoda yaratilgan asarlar o`ziga xos badiiyligi, kompozitsiyasi ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda ganch serquyosh O`zbekistonimizda ardoqlanib va avaylab muhofaza qilinayotgan ko`pgina yodgorlik obidalariga ko`rkamlik, go`zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo`qon, Farg`ona, Xiva, SHaxrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni ko`rish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch o`ymakorlik san`ati asrlar davomida o`ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san`atning eng qadimgi, O`rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko`zdan kechirib, o`rganib chiqsak, bu davrlardagi ganch o`ymakorligi bir-biridan ancha farq qiladi.

Qadimgi ganch o`ymakorligi hajmiy bo`lib realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko`pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal`alar, karvonsaroy va boshqa joylarni

bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III asrda Tuproq qal'aning serxasham saroy mehmonxonalari o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxshadagi topilmalardan VI-VIII asrlardagi Buxoro Saroyi qoldiqlardan namunalari topilgan.

Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalari ko'rish mumkin.

X-XI asrlarda naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismida ham qo'llaniladi.

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'ati o'sha davrining yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda mukarnaslar hosil bo'ldi.

Ko'pgina binolarda qo'llanila boshladi. XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorli gishtlari misol bo'la oladi. XIV-XVII asrlarda ham binolarning ichki qismlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan.

Ganchkorlikning gullab-yashnagan, davri XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari bo'ldi. XIX asrning boshlarida buyuk ganch o'ymakorlaridan Abduraxim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta

Nosir, Usta Xoji Xafiz, Usta Nasrulloboy, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta G`ofir, Usta Ibroxim, Usta Sarvi, Usta Abdufattoh va boshqalar faoliyat ko`rsatdilar.

XX asr boshlaridagi ishlarda o`yma Rel`efi juda mayin uslub texnikasi paydo bo`ldi. Rangli ganchlar, bo`yoqlar, naqsh va tasvirlar qo`llanila boshladi.

1913-1914 yillarda Buxoroda Amir Axadxon tomonidan Sitorai Moxi Xosa qurildi. Ganch o`ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa, Oq uy (mehmonxonani) o`sha davrdagi ganch o`ymakorligining ajoyib namunasi desa bo`ladi. Bunda oyna zaminida ganch o`ymakorligi bajarilgan. U o`zining nozikligi jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta SHirin bajargan. U o`sha davrda eng ko`zga ko`ringan ganchkor ustalardan edi.

1918-1920 yillarda Toshkentdagi o`lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti, o`quv namunaviy ustaxonalar va hunarmandchilik ishlari bo`yicha muzey tashkil etiladi.

O`zbekiston hunarmandlari o`z ishlari bilan 1937 yilda Parijda "San`at va texnika hozirgi kunda" degan ko`rgazmalarda ikkita "Grant pri", ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar.

1947 yili Toshkentda me`mor A. Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu binoni bezashda Usta SHirin Murodov ganchkorlik san`atining ajoyib namunalari bilan bezaldi.

O'zbekiston me`morchiligida katta xazina bo'lib qo'shilgan O'zbekiston Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey SHusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. SHusev O'zbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig`ib, ular oldiga ikki muhim masalani: teatrning zallarini har bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi - bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligi haqidagi masalani qo'yadi.

Buning natijasida teatrning Xiva, Termiz zallari qadimda ishlatilgan ganchkorlik uslubida ishlandi. Buxoro, Farg`ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an`anasiga mos bo'lgan o'ymakorligi bilan bezatildi.

O'zbekistonda o'ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud. SHulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm me`morchiligida geometrik naqshlarga keng o'rin berilgan bo'lib, ular boshqa viloyatlarga qaraganda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, o'simliksimon naqshlar spiral shaklda aylanma harakatchanligi, dinamikligi bilan farq qiladi. Islimiy naqshlar quyidagicha

yaxlit turunj, madoxil, qalampir, bodomga o'xshash tanob shakllarining takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Ba`zi hollarda turunj, madohili tanoblar o'rniga yulduzsimon girixlar ham ishlatiladi. Islimiy naqshlarda novda ko'p ishlatilib, marg'ula, barg, shkufta, oygul, no'xat gul, kurtak va g'unchalar ko'p qo'llaniladi. Xiva ganchkorligida eng xarakterli tomonlaridan yana biri naqshlarning erkin va harakatchanligi, jo'shqinligidir. Inchunun bu maktab naqqosh ustalari ko'p hollarda ko'k va yashil rang bilan ishlangan. Ro'zimet Masharipov, Karimbergan Raximov, Karimbergan Polvonov, YUusuf Xudoyberganov, Bekjon YOqubov, Odamboy Bobojonov, Odamboy YOqubov kabilar Xorazm ganchkorlik maktab namoyondalaridandir.

Buxoro ganchkorlik maktabi san`atining eng rivojlangan joyi va o'chog'i hisoblanadi. Zero bu san`at o'yma ganchlarning yirik hamda o'ziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyondalaridan biri akademik Usta SHirin Murodovdir. Buxoro ganchkorlik maktabi namoyondalari Usta Safar, Usta Adis, Usta Savri, Usta Islom, Usta Ikrom, Usta Jo'ra, Usta Qurbon YUldoshev, Usta Ibroxim Xafizov, Usta Nazrullo, Usta Hayot Nosirov va boshqalardir.

Toshkent ganchkorlik maktabi ham o'ziga xosdir. Bu maktabga xos naqshlar nozikligi aniq simmetrik taqsimga egaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyondalari safida Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maxmud Usmonov, Anvar Po'latov, Mirmaxmud Raxmatov, aka-uka Abduraxmon va Mo'min Sultonovlar, Hayot Abdullaev, Ziyodulla YUsupov, Umar Toxirov, Mirvoxiid Usmonov kabi qator yetuk ustalar bor.

Samarqand butun dunyoga mashhur eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, u yerda ishlangan naqshlarning har biri o'ziga xos maktabga ega.

Boshqa ganchkorlik maktabi naqshlari o'zining tuzilishi jixatidan Toshkent naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand ganchkorlik maktabi namoyondalari Usta Anvar Quliev, Usta Tursunboy Ismoilov, SHamsiddin G`ofurov, Quli Jalilov va boshqalardir.

Ganch o'ymakorligi turlari. Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch o'ymakorligi to'rini tanlash, qo'llash muhim ahamiyatga ega. Kichik xonaga mayda tekis o'yma va unga mos bo'lgan pardozi turi katta mehmonxonalariga esa yirik o'yma va o'ziga xos ganch o'ymakorligi qo'llaniladi.

Ganch o'ymakorligi, yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, kirma, zamini ko'zguli o'yma, zamini rangli o'yma, chizma pardozi, panjarasimon

o'yma, zanjirsimon hajmli o'yma turlaridan iborat. Bundan tashqari ganch o'ymakorligi turlari zaminli va zaminsiz o'ymalarga bo'linadi.

Eng ko'p qo'llaniladigan o'yma yassi o'ymadir. U interyerda ko'p qo'llaniladi. Albatta katta bo'lmagan xonalarga o'ymaning chuqurligi 1-1,5 sm bo'lib, unga har xil pardoz turlari beriladi.

O'yma naqshning zamini umumiy yuzaning 30-60 foizini egallaydi. O'yilgan joyiga pax pardoz, choka pardoz, lula yoki tabaqa pardoz beriladi. O'tmishda xalq ustalari ustachilik asboblarining muqaddas sanab kelganlar. Ular o'z asbob-uskunalarini shogirdlariga meros qilib qoldirganlar. Bu milliy an'analar zamirida chuqur insoniy ma'no va mazmun yotibdiki, buni his etish baxtiyorlikdir. Ana shunday baxtga muyassar bo'lgan ustozlarimizdan biri Buxorolik ganch o'ymakor akademik Usta SHirin Murodovdir. Uning Ustozi Usta Hayot kunlardan bir kuni SHirinni oldiga chaqirib men, sendan xursandman, endi mustaqil ishlayversang bo'ladi.

Milliy an'ana bo'yicha, ya'ni 20-30 ta ustalar, shogirdlar o'rtasida usta nomini berishdi. O'rtaga chaqirib beliga eng yaxshi ganch o'ymakorlik asboblaridan shturgardonni kiyiknaga qistirib qo'yishdi va fotiha berishdi. SHirin Murodov ana shundan keyin xalq o'rtasida Usta degan nomga ega bo'ladi.

Dono xalqimizda "Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur". Bu maqolda shogird u yoki bu ishni bitirgandan, og'irini yengil, mushkulini oson qiladigan ish qurollarini hamisha shay qilib qo'iish kerakligini hamda biror ishni qilib bo'lgandan so'ng bir chekkaga tozalamasdan uloqtirib, zang bostirib quymasligi, o'tmas bo'lib qolsa charxlab, o'tkir qilib qo'yishi, buzilsa darxol tuzatishi, ularni maxsus joyda saqlash kerak. Ganchkorlikda ham o'ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalar chizig'i uchun chizg'ichlar, pargor, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o'chirgichlar, shaffof qog'oz, oq qog'ozlar kerak bo'ladi.

Ganch qirish uchun sirli qog'oz, elaklar, katta va kichik chelaklar, ruletka, andava, ganch yuzasini ishlash uchun mayin latta, sovun, o'lchov asboblari, maxsus qo'lqopcha, qum qogg'ozlar, simlar va boshqa asbob uskunalar ishlatiladi. Asboblarni charxlash uchun qayroqtosh ganch tog'ora, kolip reykarlar ishlatiladi. Ganch o'yish va pardozlash uchun jarrohlik pichog'i, iskana, shturgardon tuya bo'yin, qalamtok (qalami shkufta), minkor, morpech qalamlar, qalam puh latak bindi, lulakash, zamin qalam, navo qalam, pilga qalam, dudgial qalam va boshqa asboblari ishlatiladi. Ganchkorlar qadimda 20 ga yaqin ganchkorlik asbob turlarini ishlatganlar. Hozirda bunday asbob turlarini tayyorlaydigan temirchi

ustalarimiz juda oz qolganligi va bu asboblarni rastalarda sotilmasligi natijasida hozirgi ustalarimiz asosan jarrohlik pichog`i (skalpel), minkor, iskana va shturgardon asboblarida ishlab kelyaptilar. Biz uchun dastlabki ganchkorlik sirlarini o`rganishda asosan jarrohlik pichog`i va iskana kerak bo`ladi. Ganch o`yish va pardoqlash uchun ishlatiladigan asboblar bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Jarrohlik pichog`i (skalpel) po`latdan yasalgan har xil o`lchamli jarrohlik pichoqchasi. Undan hozirgi ganch o`ymakorligida ham keng foydalaniladi. O`ymani katta-kichikligiga qarab ustalar har xil o`lchamdagisini ishlatadilar. Undan foydalanishda avval charxlab, dastasini qo`lga botmaydigan qilish uchun ikki tomoniga yupqa faner qo`yib, izolenta o`rab keyin ishlatadilar. Bu pichoq o`yilayotgan gulni chizishga, kesishga, o`yishda va pardoq berishda ishlatiladi. ya`ni bu asbob o`ymakorlikdagi turli ishlarni bajarishda qo`l keladi. Iskana - duradgorlikda ishlatiladigan oddiy asbob, uning uchi og`ma holatda kesik bo`lishi ham mumkin. Iskanalar har xil kattalikda bo`ladi, kichigi mayda o`ymalarda, kattasi yirik o`ymalarda ishlatiladi. Iskana temir sterjenining uzunligi 7 sm dan 10 sm gacha bo`lishi mumkin.

Iskanani maktab ustaxonasida ham yasab olish mumkin. SHturgardon ganch o`ymakorligidagi asosiy o`yma asbob, sterjenli bel

qismi tuya bo'yniga o'xshash 90 foiz ostida qayrilgan bo'lgani uchun uni shturgardan, ya'ni tuyabo'yin deb ham yuritiladi. yassi po'latdan yasalgan kesgich qismining tig'i uchli bo'lib teng yonli uchburchakka o'xshaydi.

Shturgardon ornamentlarning kontur chiziqlarni kesishda va o'ymali relfga pardozi berishda ishlatiladi. O'ymaga qarab shturgardonning kattaligi tanlanadi. Chunki, katta shturgardon naqshlarni konturlarini o'yishda va chuqur zaminli o'ymalarda, o'rtachasi o'ymaga pardozi berishda, kichik shturgardon esa mayda o'yma ishlarini bajarishda ishlatiladi.

Pux qalam - xanjarga o'xshash ikki tomonga qiyalab ketgan o'tkir uchli (faqat uchi shakldagi ilmoqda qayrilgan bo'ladi) asbob. Kesgich qismining uzunligi 10 sm dan 18 sm gacha uzunlikda bo'lishi mumkin. Pux qalam egri sirtlarni tekislashda, stalaktitlar bilan ishlashda, pardozdan navo ochishda ishlatiladi. Bu asbob ham har xil katgalikda bo'ladi.

Minkor - uzun (sterjenli) uch qismiga uchburchak kurakchali kesgich 90 foizli burchak ostida o'rnatilgan bo'lib, o'yma zaminini tozalashda tekislashda va chuqurlashda ishlatiladi.

Qalamoq - tuzilishi xuddi xanjar ko'rinishda bo'lib, kesgich qismi ikki tomonga qiyalab o'tkirlangan. U tirnab chiziq chizishda, o'yishda va ganchni teshishda ishlatiladi.

Morpech qalam - uy naqshlarining chetlariga yarim doiralar, bo'rtiq hosil qilish, ularni qirqish hamda relefga lo'la pardoz berishda, o'yilgan naqdilarning chetlariga zanjir, xoshiya atroflariga turli ko'rinishlarda ganchkorlar yarim doiralar, nuqtalar chikarishda ishlatiladigan ganch o'ymakorlik asbobi. Morpech qalam tuzilishi jihatidan yumalok bo'lib, sirt kesish uchun ishlatiladi, u po'lat andazali shakldan, sterjendan va yog'och banddan iborat.

Lux yarim tsilindr sirtlarni hosil qilishda ishlatiladigan ganch o'ymakorlik asbobi. Tuzilishi jihatidan keskin qismi yapaloq yassi shaklda bo'lib, uchi 90 foiz burchak ostida buklangan bo'ladi.

Qalam - xanjar shaklidagi asbob. Ba`zilarining uchi qayrilgan bo'ladi, axta yordamida tushirilgan naqshlarni o'chib ketmasligi uchun tirnab chizib chiqishda ishlatiladi.

Pilga qalam - ganch o'ymakorlik asbobining bir turi, uning uchi qayrilgan bo'ladi. U yarim aylanadigan releflar hosil qilishda ishlatiladi.

Patak binni - shturgardonning bir turi, u raxni uchli qilib kesishda ishlatiladi.

Nosa - iskana ko'rinishda bo'lib, uchi egri uchi ilmoq singari buklangan, o'tkir uchli ganchkorlik asbobining turi. Releflarni yumaloq qilib kesishda ishlatiladi.

Qalami shkufta - aylantirib teshik ochishda va chiziq chizishda ishlatiladi.

Lo'lakash - umumiy ko'rinishda yarim yumaloq buklangan, uchi yarim doira shaklida, asosan, lo'la pardoqlashda ishlatiladi. Bu asbob o'ymaniig yirik yoki maydaligiga qarab har xil o'lchamda bo'ladi.

SHarafa qalam - uchi qayrilgan iskana, mayda mukarnaslarni o'yishda ishlatiladigan ganch o'ymakorlik asbobi. Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan asboblarni hozir topish qiyin, chunki sotuvda bunday asboblarni sotilmaydi.

Ganch o'ymakorlik asboblarini maxsus qalamdonga solib yurgan ma`qul. Naqshlar buyumga, devorga yoki biror joyni bezamasin o'ziga xos uslubiga, texnologiyasiga va mazmuniga ega bo'ladi. Naqshning o'zi nima? Uning qanday turlari bor? Naqsh tili deganda nimani tushinasiz?

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma`noni anglatadi. Hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma`lum tartibda takrorlanishidan hosil qilgan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, yog`och o'ymakorlik esa hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan: o'yib, chizib, chok yordamida zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra - o'simliksimon, geometrik, gulli girix ramziy va boshqa turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidln stillashtirib olingan shaklini ma`lum qonuniyatlar asosida takrorlanishdan hosil qilingan. Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo'lib, chigal, tugun ma`nosini anglatadi, Xandasiy naqsh murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh murakkab naqshdan biri bo'lib to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan ko'pburchaklardan iborat bo'ladi. Tuzilishi jihatdan to'g'ri chiziq, egri chiziq, va aralash chiziqlardan tashkil topgan girixga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz raportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir raport o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Evropada arabeska deb yuritiladi.

Gulli girix o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topadi. Uning elementlariga yuqorida sanab o'tilgan geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar esa kabutar, sher, baliq davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi.

Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, ulardan zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Nakroit ota-

bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib uylarini ajoyib naqshu-nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak.

Amur Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezaganlar. Kishilarning go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

CHunonchi, Samarqandning eski shahar markazi, ya'ni Pegistonda savlat to'kib turgan SHerdor madrasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoqlari, bahaybat gumbazlari va chiroyli minoralari, rang-barang sirli

koshinlari hamda nafis, hashamatli, dabdabali ishlangan jimjimali qoplamasi kishini hayratga soladi.

Ushbu Madrasa boshqa me`moriy yodgorliklar singari o'z mazmuniga va tarixiga ega. Buxorodagi Ashtarxoniyalardan Muhammad Imomqulxon davrida xonning eng ishonchli hamda yaxshi kishisi, ya`ni Samarqand hokimi Yalangushbiy Baxrdir nihoyatda boyib ketgandan so'ng, Samarqanda Mirzo Ulug`bek madrasasining qarshisida 1619-1636 yillarda zamonasining mo`jizasi hisoblangan SHerdor madrasasini qurdiradi.

Bu ajoyib bino shaharning ko`rkiga ko`rk qo`shib, barcha shoiru-olimu, ulamo-yu, fuzalolar va shahar xalqining olqishiga sazovor bo'ladi. Yalangushbiy Baxrdir me`mor Abdu Jabbor oldiga hech bir narsadan o'zining ulug`ajdodlaridan qolishmasligini naqshlar orqali xalqqa etkazish vazifasini qo'ygan. San`at kalitini egallagan mashhur me`mor o'z oldiga qo'yilgan falsafiy fikrni naqsh tili bilan xalqqa unsiz ovozda yetkaza bilgan. SHerdor madrasasining bosh fasadi jozibali chiqqan bo'lib, uning peshtog`i mutanosib (simetrik) qilib ramziy naqshlar bilan bezatilgan, qizg`ish zarhal yulbarssimon sherlar nozik ohularga quvib yetib tashlayotganini va ularning ortidan kulib turgan odam qiyofada quyosh esa zarjal yog`du bilan hoshiyalangan.

Ularning atroflaridan islmiy naqshu nigoralar ishlangan. Tasvirda epchil, yengilmas sher ramziy ma`moda Yalangtush Bahodirga ishora qilingan, uning mukoyasi qilib kuchsizlik ramzi tariqasida ohu tasvirlangan. Quyosh esa o'sha davr va hayot ramzi tariqasida olingan. Zangori rangli koshinlar orqali koinotni va tinchlikni noziklik o'simliksimon naqshlar orqali bog`u bo'stonni, tabiatni aks ettirgan.

Xo'sh naqqoshlikda ramz nima? - U arabcha "ishora qilmoq" so'zidan olingan, tabiatan, voqealikni hayotdagi quvonch va tashvishlarni do'st va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

Biz endi o'zbek milliy naqsh tili alifbosi bilan tanishtirib chiqamiz. Ular qo'yidagilardan iboratdir:

Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma`nolari:

Teng tomonli uchburchak — tik turgan holati hastni boshlanishi, teskari turgan holati esa hayotni oxirini bildiradi.

Teng yonli uchburchak - yaxlit bo'lak, ayriliq,

Kvadrat - dunyoning to'rt tomoni, osmon saroyi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug`lik, mustahkamlik.

To'g`ri to'rtburchak - ishonch.

Romb — ayol, ya`ni ona yer ramzi, serfarzandlik. Aylana – 13 olam, baxt, quyosh, odamlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi. Besh qirrali yulduz - hayotni qisqaligi, besh kunlik dunyo. Yarim aylana - baxt.

Yarim oy - islom dinini ifodasi. Musulmonlik ramzi.

O`ng svastika - abadiy harakat, o`shish, ko`tarilish.

CHap svastika - teskari harakat, buzilishi. Quyosh - hayot ramzi.

Bulut olov - g`oliblik ramzi,

Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma`nolari:

Bodom - baxt ikbol. Barg - baxrogi uyg`onish. Kalampir -har xil yomonliklardan va yomon ko`zdan asrash ramzi.

Zirk guli - (Gulsafsar) - osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor - ezgulik, to`qchilik, to`kin-sochinlik.

Oygul - baxt iqbol ramzi.

Jingala - to`kin sochinlik, boylik ramzi.

Olma - muhabbat ramzi.

Novda - boylik va farovonlik,

YAproq - to`qchilik, bahorgi uyg`onish, Navro`z.

Isriq - yomon ko`zdan asrash ramzi.

Atirgul - go`zallik ramzi.

Qush va hayvonlar ramziy ma`nolari;

SHer - mardlik va jasorat, kuchlilik ramzi.

Tulki - makkorlik.

CHumoli - donolik, xoksorlik ramzi.

Bulbul - sadoqat

Xumo - baxt keltiruvchi qush

Boyqush - baxtsizlik

Baliq — xushyorlik ramzi

Sinkop - uy hayvonlarini ko'payishi ramzi

Echki - jasurlik, mardlik

Oq kabutar - tinchlik

Ohu - go'zallik, noziklik

Ranglarning ramziy manolari:

YAshil rang - ona tabiat ramzi

Ko'k rang - moviy osmon

Qizil rang - g'alaba, xursandchilik

Sariq rang - muqaddaslik

Qora rang - motam

Sariq gul - ayriliq

Zangori - oliy e'tiqod

Oq rang - tozalik, yorug'lik

Ganch o'ymakorligini o'rganishda naqsh chizish muhim ahamiyatga ega. Naqsh chizishni yaxshi bilmasdon turib ganchni har qancha chiroyli qilib o'ymaylik baribir sizni yetuk usta deb hech kim tan olmaydi.

Har bir xalq amaliy san`at turlarida o'ziga xos tuzilishga, ko'rinishga, mazmunga ega bo'lgan naqshlar ishlatiladi. SHu qatori ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqshlar ham o'ziga xos xarakterga egadir, Tabiiyki naqsh elementlari naqqoshlik, yog`och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi, kashtachilik va boshqa turlarida ishlatiladigan naqsh elementlari va naqshlar bilan o'ziga xos farq qiladi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g`uncha, kabutar, tovu va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalari, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarini stillashtirib olganlar.

CHunonchi, usta gulni stillashtirib olishda uning go'zalligini qaysi holatda (ustidan, yonidan, tagidan) ko'rinishini tasvirlashni, izlab topadi.

Har kandy kishi ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, yog`och o'ymakorligiga boshqalarni o'rganish uchun naqsh elementlari chiza olishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlashni alifbosi hisoblanadi. Bu darsdan biz o'simliksimon naqsh elementlari barg, gul,

margula va tanob, shkufta, bog`lam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni o`rganamiz.

Barg o`simliksimon naqsh elementlari bo`lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o`simlik bargni stillashtirib oltan tasviri.

Barg naqsh kompozitsiyasida to`ldiruvchi va husn beruvchi elementdir. Ular tuzilishiga ko`ra oddiy va murakkab turlarga bo`linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko`p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning qo`yidagi: Stilizatsiya - qush, baliq hasharotlar, barg, gul, rang va shaklini ko`rinishini naqshga moslashtirib hamda umumlashtirib olinishi turlari bor: chunonchi, shobarg (shohona barg) eng katta barg, ko`p barg, chor barg, (to`rtta barg), xurmo bargi, tol bargi, anor bargi, kashkarchi bargi, madohil bargi, qush bodom bargi, qalampir bargi, nok bargi, sambig bargi va boshqa 50 dan ortiq turlari bor.

Runcha - tabiatdagi g`unchalarni usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Gul - tabiatdagi naqqoshlar tomonidan stillashtirib olingan tasviri. Gul naqsh kompozitsiyasida to`ldiruvchi va husn beruvchi element bo`lib hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo`lib, ular o`ziga xos nomlanadi. CHunonchi, uch-besh yaprog`li oygul, bargli oygul, lola gul, paxta gul,

no'xat gul, chinni gul, savsar gul, agir gul, gulafshon, gultojixo'roz va boshqalar.

Gullar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Murakkab gullarga lista gul, ko'p bargli gul va boshqalar, oddiy gullarga esa oygul, lola gul, no'xat gul va boshqalar kiradi.

Gullar har xil tuzilishga ega bo'lganligi uchun ularni o'ziga xos nomlari bor.

SHkufta - o'simliksimon naqsh elementi bulib, novdalar bir-birini bog'lash va yuzalarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. SHkufta tuzilishi jihatidan turlicha bo'ladi. Bir yerda kichik sodda bo'lsa, ikkinchi o'rinda anchagina takomillashgan, uchinchi o'rinda ikki tomondan kelayotgan shkufta madoxil yoki shunga o'xshash shaklni hosil qiladi.

Bog'lam va sirtmoqlari - o'simliksimoi naqsh elementlari bo'lib, bandi rumiy boftaning oddiy turi hisoblanadi. Ikki tanobni uchinchi sirtmoqsimon egib o'ziga bog'lashi sirtmoq deyiladi. Sirtmoqlar bir-biri bilan chalkashib o'tadi, umumiy ko'rinishi xuddi sakkiz raqamni eslatadi.

Bofta - tanob aylanib o'tib hosil qilgan shakl, islmiy naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi.

Margula - qo'sh chizikli gajak, o'simliksimon naqsh elementi. U misgarlik, naqqoshlik, zardo'zlik kabilarda ishlatiladi. Agar bir novdani

uchidan ikki margula hosil bo'lgan bo'lsa, uni qo'sh margula deb yuritiladi. Agar novda bilan margula tasvirlangan bo'lsa, margulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida margula to'ldiruvchi element hisoblanadi.

Band - (novda nabotiy) naqshlardagi o'simlik va daraxt novdasini ifodalovchi yo'l bilan u tanobga nisbatan ikkilamchidir. O'simliksimon naqsh elementi bo'lib, u gullarning novdasi hisoblanadi. Band tabiatdagi daraxtga yoki o'simliklarning novdasini va tanasini yengillashtirib olingan tasvirdir, har bir naqsh elementi singari bamdning ham kompozitsiyada qo'llanishning o'ziga xos qoidalari bor. Masalan, bandning aniq, bir o'lchamda bo'lishi kompozitsiyada gullarga nisbatan saqlanish, u naqshda gullar, barglar va tanoblarning tagidan o'tishi va h.k. Turli naqshlardan kompozitsiyada banddan o'ziga xos metodda foydalaniladi, shuning uchun ham naqshlar bir-biridan farq qiladi. CHunonchi, Xorazm naqshida bandlar kam, kurtak va barglar deyarli bo'lmaydi. Novdalarning o'zi prujina singari bir-biriga to'qilib ketadi. Bundan tashqari novda shoxlash paytida Buxoro, Toshkent va Samarqand nusxalaridan ko'pincha shkufta bilan shoxlari bir-biriga mustahkamlashsa, xorazmliklarda shkufta ajratilmay o'rniga novdacha qo'shiladi.

Tanob - arabcha chilvir, arqon degan ma`noni beradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va naqshiga shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. Markaziy Osiyo naqshlarida bir xil yo`g`onlikdagi chiziq bo`lib, ustalarimiz tabiat manzarasida uchraydigan anhorning shartli tasviri deb olganlar. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarni chizadi. So`ngra novdalarni yo`nalishiga moslab gullar joylashtirib chiqadi. Ustalar naqsh kompozitsiya chizishda tanobni birinchi rejaga qo`yadilar. Tanob ustidan hech qachon, gul, novda yoki barg bosib o`tmaydi. Tashqari tanob tag ranglarini bir—biridan ajratib turadi. Tanoblar xilma-xil bo`lib, bir kompozitsiyada boshlanganicha uzluksiz davom etadi, ba`zi nusxalarda tanob ikki nuqtadan boshlanib bir-biriga qarab yo`nalib, bir-biriga chirmashib tugallanadi, yana boshqa nusxalarda tanob bir nuqtadan boshlanib ikkinchi tomonga yo`nalib taqsim chetiga borib tugallanadi. Tanob egri, to`g`ri, aralash chiziqlardan tashkil topgan bo`lishi mumkin. Agar kompozitsiyada tanoblar kesib o`tuvchi rangli naqshlarda ishlatilsa, unda albatta ikkalasi ikki xil rangga bo`yaladi. Agar bir xil rangga bo`yalsa, unda asosiy shakl o`zini ko`rsata olmaydi. Tanob bir-birini kesib o`tmay bir-biriga parallel bo`lsa, bunday nusxani qo`sh tanobli ismli deb ataladi. Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo`lsa, "qo`sh tanobli

namoyon" deb ataladi. Kompozitsiyada tanob bir-biridan ortiq ham bo'lishi mumkin. Agar ikki tanobli kompozitsiya bo'lsa, bir boshi ikkinchi gul, barg va boshqalarning o'tishi mumkin emas.

GANCHKORLIK SAN`ATI TARIXI

Ganchkorlik qadimiy san`at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi xusn jamolini dunyo me`morchiligida, shu jumladan o'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg`oniston va boshqa sharq mamlakatlari me`morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rkamlik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Marg`ilon, Xiva, SHaxrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni ko'rish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan xoxlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. SHu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan avlodga o'tib tarixiy an`ana sifatida rivojlanib boryapti. Ganchkorlik san`atimiz

faxri, beqiyos va bebaho xazina. Xech shubhasizki, uni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III asrda Tuproqqal'aning serxasham saroy mehmonxonolari qiyma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi III—IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, palmetta, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa gorelefli ishlangan baliq tasvirida o'yilgan ganch namunasini ko'rsatish mumkin.

Varaxshadagi topilmalardan VII—VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini

ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini hukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni ta'qiqladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII—VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san'atning xilma-xil namunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o'ymakorligi namunalari to'lqinsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o'simliksimon naqshning islami turi ko'p ishlatilgan.

X—XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham qo'llanilgan. Har xil geometrik shakli qilib g'isht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida X—XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiklari topilgan. Ayniqsa izora (pachel) ganchi topilgan bo'lib, unda geometrik va o'simliksimon naqshning chuqur o'ymalari ishlatilgan. O'yma chuqurligi 2—3 sm gacha borgan, naqsh koramtir soya hisobiga aniq qopqoq bo'lib ko'rinib turibdi. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devorning sirtiga to'ppa to'g'ri chizilib o'yilgan. O'sha davr ustalari

axtadan (ulgudan) foydalanmaganlar. Binolarning tashqi qismiga esa quyma asosida ganch ishlari bajarilgan.

III asrda murakkab naqshlar paydo bo'ladi. Ustalar tabiatdan o'simlik va hayvonlarning tasvirini stillashtirib, ganch o'ymakorligida ishlatganlar. SHu devorlarda o'ymaning chuqurligi 7 mm dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyon, ustun va peshtoqlariga ganch o'yma ishlatilgan. Farg`ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon o'yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch plitalari bilan bezatish keng avj olganligini ko'rsatadi. Uzgan (Ush viloyatida) yodgorliklari shartli ravishda shimoliy, o'rta, janubiy deb nomlangan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari, ravoqlari juda ham nafis o'yma naqshlar bilan ishlangan. Movarounnahrda ganchkorlik san`ati, ayniqsa ravnaq topgan, me`morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko'tarilgan. Unda fantastik hayvonlarning tasvirini ko'rish mumkin.

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san`atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda muqarnaslar (stalaktitar) hosil bo'ladi va ko'pgina binolarda qo'llanila boshlanadi. Muqarnaslar oddiy ganch o'ymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san`ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o`ymakorligi ishlari misol bo`la oladi. XIV—XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san`atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o`ymakorligi, uzviy bog`langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan o`yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qo`llaniladigan bo`ldi. Uning tashqari qismida esa juda kam qo`llanildi. Ganch o`ymakorligida mashhur bo`lgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o`sha vaqtda xalqqa tanilganlardan. Muhammad Muso o`g`illari Madusmon, Isoxon va YUsufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g`isht terishda ham obro` qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri—XIX asrning boshlari bo`ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o`ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo`yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg`ona vodiysi va Xivada o`ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o`ymakorligi texnikasi kishini

qoyil qoldiradigan darajada o'sdi. Buxoro bezaklari mayin, gullari juda ham nafis, Marg'ilonning guldor bezaklari yaxlit ko'rinishga ega, Toshkentniki esa qat'iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi,

XIX asrning boshlarida buyuk ganch o'ymakorlaridan Abdurahim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Hoji Hofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta Qofir, Usta Ibrohim, Usta Sari, Usta Abdufattoh va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar. Asr boshlaridagi ishlarda esa o'yma relefli juda mayin uslub texnikasi paydo bo'ldi. Rangli ganchlar, bo'yoqlar, naqsh va tasvirlar qo'llaniladigan bo'ldi. Boylar, amaldorlar, xonlar o'zlariga saroylar, bog'lar va qasrlar qurdirib, ularni o'yma ganch bilan bezattirdilar. XX asrning boshlarida diplomat amaldor A. Polovtsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to'garagiga a'zo bo'lib, sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. SHuning uchun u o'ziga yevropacha uy qurdirdi. Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A. Polovtsev o'zbek xalqi san'atini yaxshi biladigan etnograf M. S. Andreevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U o'zbek xalqi san'ati namunalarini yig'ib, ularni o'rganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari

Qo'qon, Buxoro, Farg'ona va boshqa shaharlardan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlari va naqqoshlar taklif qilindi. SHular jumlasidan Usta SHirin Murodov, Usta Arslonqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqa ganch o'ymakorlar ham bor edi. M. S. Andreev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi "Toshkent ustalariga mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, G'arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. 1902— 1903 yillarda yevropacha qurilgan uy o'zbek milliy bezagida pardozi qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari o'ziga xos xarakterda bo'lib, o'yma naqsh kompozitsiyasida katta shohbarg va to'pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu yerda pardozi hamma turlari qo'llanilgan. Devorlarga o'yilgan ganch o'ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontall joylashtirilgan, atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islami hoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o'sayotgan tabiat o'simliklarini eslatadi. Pardozi turlari xonaga tushayotgan yorug'lik hisobiga juda o'rinli tanlangan. Derazadan tushgan yorug'lik o'ymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar tashlab turgan kishi xoh uzoqdan, xoh yaqindan qaramasin, u o'ziga xos jozibaga ega ekanligini ko'radi. Albatta, ustalar

bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi go'zal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. O'yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrning boshlaridagi eng ko'zga ko'ringan arxitektura yodgorligi bo'lib qoldi.

1913—1914 yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Sitorai Mohi-Xosa qurildi. U ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona) o'sha davrdagi ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi desa bo'ladi. Bunda oyna zaminida ganch o'ymakorligi bajarilgan. U o'zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta SHirin bajargan. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi.

O'ZBEKISTONDA GANCH O'YMAKORLIGI

SAN`ATINING

RIVOJLANISHI

O'zbekistonda osoriotiqalarni saqlash muassasalari Samkomstaris, Turkkollstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris yodgorliklarni hisobga olish, o'rganish ta'mirlash bo'yicha katta ishlarni boshlab yubordi. Ko'pgina arxitektura yodgorliklarini, me'mor, san`atshunos olimlar va ustalar qayta tiklash, ta'mirlash ishlarini boshlab yubordilar. Arxitektura

yodgorliklarini tiklashda ganch o'ymakor ustalar o'z kuchquvvatlarini ayamadilar.

1918 yili Turkiston jumhuriyatida «Hunarmandlar bo'limi» tashkil etildi. Bu bo'limning maqsadi hunarmandchilik bo'yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktablar tashkil qilish, o'quv ustaxonalarini tashkil etish, muzeylar, hunarmandlar birlashmasi (arteli) tashkil etish, qo'lda ishlangan ishlarga mablag` ajratish va boshqalar.

1918—1920 yillarda hunarmandlar komiteti Toshkentda o'lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti, o'quv namunaviy ustaxonalar va hunarmandlik ishlari bo'yicha muzey tashkil etdi. O'quv namunaviy ustaxonasida xalq amaliy san`ati turlari duradgorlik, gilam to'qish, gazlama to'qish, kulolchilik, charm ishlash, naqqoshlik, ganchkorlik va hokazolar bo'yicha instruktor tayyorlash kerak edi. Muzeyni tashkil qilishdan maqsad eng yaxshi hunarmandchilik ishlarini sotib olib yig`ish va saqlash edi. 1918 yilda Samarqandda 25 aprel 1919 yil Butunittifoq badiiy maktabi tashkil etildi. 25 aprel 1919 yil Butunittifoq Markaziy Ijroiya qo'mitasi «Hunarmandchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishga doir tegishli choralar ko'rish» haqida dekret qabul qildi. Bu dekretda hunarmandchilik buyumlarini bemalol yasab sotishga ruxsat etiladi.

Moskvada 1923 yilda Butunittifoq qishloq xo'jalik ko'rgazmasining Turkiston pavilonida ganch o'ymakorlar, naqqoshlar, yog'och o'ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko'pchilikka manzur bo'ldilar.

1925 yili «Uzpromsoyuz» tashkil etildi. Uning maqsadi tashkil etilgan hunarmandchilik artellariga rahbarlik qilish va yangi artellar ochish edi. 1930 yilda Samarqandda hunarmandchilik ishlab chiqarish texnikumi ochilib u yerda xalq amaliy san'ati turlari bo'yicha ko'pgina ganch o'ymakor ustalar, naqqoshlar, kulollar va boshqa ustalar yetishib chiqdi. O'zbekiston hunarmandlari o'z ishlari bilan 1925 yilda Parijda keyin Leyptsigda, 1927 yilda jahon bo'yicha, 1937 yilda Parijda «San'at va texnika hozirgi kunda» degan ko'rgazmalarda ikkita «Gran pri», ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. Bu Sovet hukumatining o'sha vaqtda xalq amaliy san'atiga bo'lgan katta Qamxo'rliqi edi. 1939 yilda Nyu-Yorkda «Mir budushego» ko'rgazmalariga ham O'zbekiston xalq amaliy san'ati ustalari qatnashib diplom oldilar. Ganchkor ustalar arxitektura yodgorliklarini, murakkab muqarnaslarni, nozik ganch o'yima ishlarini qayta tikladilar. Ular Minorai Kalon (XII asr), Magoki Attor masjidini, (XII asr), XVII asrda qurilgan SHerdor, XVII asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini va shunga o'xshash arxitektura yodgorliklariga qayta hayot baxshida etdilar. Bu

murakkab ishlarda jumhuriyatimizdagi ganchkor ustalar o'z kuchi, quvvati va bilimni ayamadi. Ular buxorolik ganch o'ymakorlar — Usta SHirin Murodov, SHoir Ibodov, Abdurahim hayotov, samarqandlik Rashid Jalilov, SHamsiddin G`ofurov, Abdurashid Jalilov, Akrom Umarov, Mirhomid YUNusov, Abdurayim SHermuhamedov, toshkentlik Arslonqul Nazarov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Usmon Ikromov, xivalik Odamboy YOqubov, Odamboy Bobojonov, Abdulla Boltaev, Ro'zimat Masharipov, namanganlik Usta Madalixon Xusanov, Usta Akbarov, Qo'qonliklardan — Usta Saidahmad Mahmudov, Muhammadjon Qosimov va boshqa ko'pgina kamtarin ganch o'ymakorlar o'z kuch va g`ayratlarini ayamadilar.

1938 yili Moskvada Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekiston pavilonlarini Buxorodan, Toshkentdan, Farg'onadan, Xivadan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlar va naqqoshlar qurdilar va bezadilar. U yerda birinchi bo'lib ganch qandil namoyish qilindi. Bu ajoyib ganch o'ymakorligi sovet xalqini juda hayratga soldi. Haqiqatdan ganch o'ymakorlik san`ati O'zbekistonda o'ziga xos milliy an`anaga ega. Kishilarni ganch o'ymakorlik san`atiga bo'lgan hurmati yanada oshdi.

1939 yili samarqandlik va Buxorolik ustalar Toshkent shahar Navoiy ko'chasidagi «Muzkomediya» teatri binosini ganch o'ymakorligi bilan bezadilar. Bu binoni bezashda Usta SHirin Murodov, usta SHamsiddin G'ofurov, usta Abdurahim Hayotov va boshqalar qatnashdilar. Ustalar binoning ichki va tashqi qismlarini namoyon, panjaralar, ustunlar va boshqa joylarini ajoyib ganch o'ymakorligi bilan bezadilar.

O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi binosining ganch o'ymakorlik ishlarini Toshkentlik Toshpo'lat Arslonqulov bezadi. Evropacha usulda ustunlarning yuqori qismini, namoyonlar, ruta, zanjira, sharafalar bilan bezadi. Ulug' Vatan urushi vaqtida ham O'zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarish korxonalarini davom ettiraverdi. Hukumat shunday og'ir kunlarda ham xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berib ko'pgina qarorlar chiqardi. O'quv kombinatida ustalar tayyorlash davom ettirildi, o'sha davrdagi eng og'ir kunlarda Beshyog'och maydonida Muqimiy nomli teatr qurildi. Bu binoni qurilishiga marg'ilonlik usta me'mor O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi YUSuf Ali Musaev boshchilik qildi. Teatr binosini bezashda buxorolik Usta SHirin Murodov, samarqandlik Quli Jalilov, toshkentlik Mahmud Usmonov, Usmon Ikromov, SHamsiddin G'ofurov, arxitektor Obid Zaynutdinov va A. A. Sidirovlar, rassom R. A. Akbalyan va boshqalar qatnashdilar.

Toshkentda 1947 yilda g'alabaga bag'ishlab me'mor A. Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu qurilishni bezashda Usta SHirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylik bilan o'yib bajardi. Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturasiga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o'yma ganch bilan bezaldi. SHarafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Har bir panjaraga alohida kompozitsiya chizilib atroflariga moslab zanjira hoshiya berildi. O'zbekiston me'morchiligiga katta xazina bo'lib qo'shilgan O'zbekiston Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey SHusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. Jahonga tanilgan arxitektor — Korbbzenni etishtirgan Frantsiya Aleksey SHusevning nomini hamma yaxshi biladi. CHunki u 1897 yilda Parij akademiyasining musavvirlik sohasi bo'yicha talabasi bo'lgan 1933 yilda Toshkentda quriladigan teatr binosining eng yaxshi loyihasi uchun Butunittifoq konkursi e'lon qilingan, bu konkursda Aleksey Viktorovich SHusev tavsiya etgan loyiha eng yaxshi deb topildi. 1940 yilda teatr binosining qurilish ishlari boshlanib 7 yilda bitkazildi. A V. SHusev 1894 yillardayoq qadimiy SHarq me'morchiligi bilan tanish edi. U O'rta Osiyo bo'ylab o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashdi, Temur davrida qurilgan

yodgorliklarni sinchiklab o'rgandi. O'sha paytda u SHarq, quyoshining tig'i ostida tovlanib ko'zga tashlanadigan arxitekturani quradi. Teatr binosi arxitekturaga, ana shu yodgorliklarga bo'lgan muhabbati, bilimi juda ham qo'l keldi. Ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi yubileyining tantanalari shu tadbirga qo'shilib ketdi. Xuddi o'sha kuni teatrga mutaffakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib o'zbek milliy an'analarini saqlagan holda xalq hunarmand do'stalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshkaroshlar va boshqalar kelishdi. Bezak ishlarida Akademik SHusev eskizi bo'yicha teatrning fasadi, (tashqi ko'rinishi) eshikdan kiraverish joyi (foesi) va tomosha qilish zali (mehmonxonasi)ni T. Arslonqulov bajardi. Teatr binosining 3-qavatida 6 ta yon zal (mehmonxona)lari bor edi. SHusev O'zbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig'ib, ular oldiga ikki muhim masalani qo'ydi. Birinchisi har bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi — bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligi haqidagi masalani qo'ydi. Bu Xiva, Termiz, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va Toshkent zallaridir. Bulardan Xiva va Termiz zallari qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan Buxoro, Toshkent, Farg'ona

va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an`anasiga mos bo`lgan ganch o`ymakorligi bilan bezatilgan.

Xiva zali —(arxitektor S N Polupanov) Xiva zalidagi ornament naqsh andazalarini davlat mukofoti laureati Abdulla Boltaev chizgan. Ganch o`ymakorlik ishlarini xivalik ustalar — S. Xudoyberganov, K. Polvonov, B. Bobojonov, Ro`zimat Masharipov va uning shogirdlari S. Qalandarov, SH. Ibrohimov, S. Qodirov, Avazov kabi ustalar milliy badiiy bezashda qatnashdilar. Ular bezagan o`yma ishlar kishi qalbiga orom va quvonch bag`ishlaydi.

Xiva zali qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Xiva zalidagi bezaklar medalyon shaklida qilib o`yilib, xuddi Xivadagi moyolik (koshin)ga o`xshab ketadi. Bu o`yma uncha chuqur bo`lmay juda mayda o`yilgan, xuddi yog`ochdan o`yilganga o`xshaydi. Naqsh kompozitsiyasining tuzilishi spiralsimon, o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy naqsh kompozitsiyalari shakldor medalonlarni takrorlanishidan hosil bo`lgan uzoqdan ajoyib namoyon ko`rinishiga ega.

Termiz zali —(me`mor A. Zaynutdinov.) Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini Usta SHirin Murodov Termiz stiliga mo`ljallab chizgan. O`yma ishlarini Usta SHirin Murodov, Q. Ne`matov va boshqalar bajarganlar. Termiz zali qadimiy ganchkorlik uslubida bezatilgan bo`lib,

XII asr Termiz saroyidagi ganch o'ymakorligini eslatadi. Teatrda kirgan odam O'rta asr bezash stilini shu teatrda uchrashini xayoliga ham keltirmaydi.

Termiz zalida zamonaviy uslubdagi hech narsani ko'rmaymiz. O'yilgan naqsh zamini umum yuzaning 10—30% ni tashkil etadi chuqurligi 10—20 mm. O'yilgan yuza qoramtir tusda soya berilgan, o'yilmagan yuzani aniq kontrast qilib ko'rsat turibdi. Hoshiya va izaraga ishlangan naqsh foni 10—20% ni tashkil etib, naqsh kompozitsiyalari bir-biridan farq qiladi. Namoyon cheti ozgina bo'sh qoldirilib atrofiga rutilangan. Ruta foni namoyondagi fonga nisbatan kam o'yilgan. Bu namoyonga qaraganda ruta oqishroq bo'lib namoyon kompozitsiyasining ko'rkini yanada ochgan.

Farg`ona zali —(me`mor B. N. Zasiqkin). Ganch o'ymakorligi va naqsh kompozitsiyalarini Qo'qonlik Saidmahmud Norqo'ziev bajargan. O'yima ishlariga Jalil Marasulov va ko'pgina Farg`ona ustalari qatnashishgan. Farg`ona zalining shifti qoburg`ali qilib ganch o'ymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg`ona vodiysidagi an`anaviy badiiy uslubni eslatadi. SHarafa biroz qo'polroq qilib stillashtirib yuborilgan. SHarafani yuqori qismiga geometrik naqshlar panjaraga o'xshatib ishlangan. Kompozitsiyalari choka pardozda bajarilgan.

Samarqand zali—(me`mor S. N. Polupans ganch o`ymakorligi ishlari kompozitsiyalar davlat mukofoti laureati Quli Jalilov va boshqalar bajargan. Bu zal sharafa kompozitsiyalarini, geometrik ornamentlarni, namoyon, zanjira kompozitsiyalarining ajoyib namunalari ishlangan. SHiftga geometrik naqsh gir o`yilib oralariga o`yma islimi naqsh bajarilgan. SHift atroflariga yulduzsimon hovuzlar va o`rtasiga murakkab geometrik naqshlar o`yilgan. Devorning yuqori qismiga iroqi sharafa bajarilgan. Keng to`rtburchak shaklidagi gilamga, ya`ni Samarqanddagi so`zanaga o`xshab ketadi. Namoyon atrofida bo`sh joylar qoldirilib ba`zilarga ruta o`yilgan. Bu bo`shliqlar kompozitsiyani yanada badiiylashtirib xonaning ko`rkamligiga yana ko`rk bag`ishlaydi. Qandillar sakkiz qirrali qilib o`yilgan.

Buxoro zali — Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini va o`ymalarini Usta SHirin Murodov bajargan. U buxorocha milliy va zamonaviy uslubni qo`llagan. Uning oyna zaminli ganch o`ymakorligi xonani yanada keng qilib ko`rsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharafalar, qandillar, namoyonlar kishi diqqatini o`ziga tortadi. Keksa Usta SHirin Murodov buxoroliklarga xos «Tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha yetkazib kelib Buxoro zalida oynai jahon qurdi. U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubballi qilib muqarnas ishladi. SHift o`rtasiga

o'sha davrgacha hech kim stalaktit ishlatmagan edi. Murakkab muqarnaslar xona hajmiga mos tushgan. hajmli oppoq geometrik shakllar kishiga qandaydir erkinlik his tuyg`usini beradi. Deraza ko'zgu zaminli namoyonga tushayotgan yorug`lik xonaga yanada keng, yorug` va o'ziga xos joziba baxsh etadi.

Toshkent zali (mehmonxonasi)— Toshkent zaliga Toshpo'lat Arslonqulov kompozitsiya chizdi. Guldasta, sharafa, namoyon, rutalar yuqori relefli qilib bajarildi. Toshpo'lat Arslonqulov o'yima naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardozi», «zanjira», «shohbarg» kabi uslublarni amalda qo'llab, taraqqiy ettirish bilan birga «chor burchak», «quvacha islimi», «palak islimi», «paxta chanog`i islimi» kabi kompozitsiyalarni bezadi. Toshpo'lat Arslonqulov zalda zamonaviy ganch o'ymakorligini bajarib, uning har bir kompozitsiyasi tantanaviy dinamik qilib ishlangan. Pardozning rangbarangligi boshqa viloyat naqshlaridan farq qiladi. O'yimlar aniq, ko'rkam yaxshi ko'rinishga ega. Usta islimi naqshdan ko'p foydalangan.

San`at turlari asrlar, yillar davomida bir tekisda taraqqiy etmaganligini ko'rish mumkin. 50-yillarda «ortiqcha hashamga» qarshi kurash boshlangan. Binokorlikda xalq amaliy san`ati sig`ishmaydi, degan kishilar topildi. Ular binoga nima ko'rk, hasham, estetik zavq uyg`otsa

shular ortiqcha deb topildi. Natijada binolar hech qanday bezaksiz to'rtburchak qilib qurila boshlandi. Ganch o'ymakor ustalar o'z kasblarini tashlab boshqa sohalarga o'tib ketishdi. O'sha kezlarda Usta ganchkor Mahmud Usmonov o'z kasbini tashlamasdan Lenin va N. Ostrovskiy nomli o'quvchilar saroyida ganch o'ymakorligi to'garagini davom ettirdi. 1953 yili Mahmud Usmonov iltimosi bilan Toshkent shahridagi P. Benkov nomli jumhuriyat badiiy o'quv yurti qoshida xalq amaliy san'atining bir necha bo'limlari, shu jumladan ganch o'ymakorligi bo'limi ham ochildi. Bu o'quv yurtiga Davlat mukofoti laureatlari Usta SHirin Murodov, Usta Toshpo'lat Arslonqulov va Mahmud Usmonovlar o'ymakorlik sirlarini yoshlarga o'rgatdilar. 1957 yili Usta Mahmud Usmonov qirqaqa yaqin shogirdlari bilan Buxorodagi Sitorai Mohi -Xosa saroyidagi ganch o'ymakorlik ishlarini qayta tikladi. 1961 yili A.Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrining ganch o'ymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

1966 yili Toshkent zilzilasi oqibatida ko'pgina uylar vayron bo'ldi, arxitektura yodgorliklari shikast edi. Ularni qayta tiklashda ganch o'ymakor usta Mahmud Usmonov o'z shogirdlari bilan qatnashdi. 1967 yili O'zbekiston Ministrlar Soveti binosining ganch o'ymakorligini M. Usmonov bajardi. Zal bezagi uchun usta ikki xil nusxa tayyorladi, ulardan

biri raxli, ikkinchisi qo'sh qavatli girixlardan foydalandi. U ustunlarga pargori islami naqshni qo'llab ajoyib asar yaratdi. Bu binoni bezatishda pax pardoزدan foydalangan.

1967—1968 yillarda Hamza nomidagi Davlat Akademik drama teatri binosining ichki qismi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. M. Usmonov bu binoda ganch o'ymakorlik turlari qirmadan, choka va tabaqa pardozlarni qo'llagan.

1968 yili O'zbekiston Markaziy komiteti ma'muriy binosining ichki qismiga ganch o'ymakorlik bezaklarini M. Usmonov bajardi. Bu binoda u ganch o'ymakorligining ajoyib namunalarini ko'rsatdi, ayniqsa «Xalqlar do'stligi» kompozitsiyasi namunali chiqqan. Bu namoyonda qardosh sovet xalqlarining do'stligi badiiy ifodalar xuddi chamanzordagi bog'larni shu qatori ramziy naqshni o'ta mohirona bajargan. Unda faqat nisbiylik hisobga olinmagan, lekin o'ymaning dinamikligiga katta e'tibor berilgan. Bu binoda choka va qisman pax pardoز qo'llanilgan. 1968 yili O'zbekiston qishloq xo'jalik ministrligi binosi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Buni ham M. Usmonov bajardi. Bu yerda o'yma naqsh 1,5 sm chuqurlikda o'yilib choka pardoز berilgan. Ayniqsa, islami naqshlarning nafisligi va dinamikligi kishini o'ziga maftun etadi.

1968 yili Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyining geometrik va o'simliksimon ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini bajardi. M. Usmonov bu binoni choka pardoz, ayrim joylarini pax va tabaqa pardoz qilib bezagan. Ganch o'ymakorlik bilan Markaziy Komiteti ma'muriy binosi, Markaziy univermag, Buxoro kontsert zali, Toshkent markazidagi yangi qurilgan Lenin haykali tribunasi tagidagi zallar va binolar ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. 1969—70 yillarda Samarqanddagi aeroport, Registon maydonidagi restoran binolari, Toshkent filiali ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. 1980 yili Mahmud Usmonov Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent San'atshunoslik instituti binosida o'yma ganch ishlarini bajardi. Naqsh kompozitsiyalari chizmalarini Z. Bositxonov bajargan. U erda Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent uslublari mavjud. Keyingi yillarda ganch o'ymakorligining noyob asarlari va ularni yaratgan ustazodalar haqida san'atshunos olimlar Rempel L. I., Notkin I. I., Pritsa I., Morozova A. S., Zoxidov P. SH., 3 Bositxonov va boshqalar risolalari bilan ganch o'ymakorlik sirlarini ochib, tadqiqot ishlarini olib bordilar va olib bormoqdalar.

O'zbekistonda xalq amaliy san'ati turlari rivojlanib bormoqda. Hozirgi zamonaviy binolar, uylar ganch bilan bezatilmoqda. SHu paytgacha ganchkorlik san'ati namunalarini xalq amaliy san'ati muzeyida

badiiy ko'rgazma zallarida, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish binolarida uchratamiz. CHunonchi temir yo'l vokzali, aeroport binolarida, mehmonxonalarda, muzeylarda, choyxona, kafe, restoranlar, teatrlar fabrika va zavod, kolxoz va sovxoz klublari va idoralarida, o'quvchilar uyi va saroylarida, maktablarda, tsirk binolarida, hattoki xonadonlarda ham mohir ustalarning ganch o'ymakorlik namunalarini ko'ramiz. Ganch o'ymakorlik san`ati tez sur`atlar bilan taraqqiy etib bormoqda. hozirgi vaqtda O'zbekistonda yoshlarga boshqosh bo'lib kelayotgan O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san`at arbobi, O'zbekiston Lenin komsomoli mukofoti laureati, Hamza nomidagi UzDavlat mukofoti laureati, eng ko'zga ko'ringan usta Mahmud Usmonov ganch o'ymakorligi bo'yicha katta ishlar qilib kelyapti. U ganchkorlik san`atini rivojlantirishga katta hissa qo'shib, uni yangi uslublar bilan boyitib bormoqda, iste`dodli shogirdlar etishtirib chiqarmoqda. Mahmud Usmonovning qobiliyatli shogirdlarining ishlari faqatgina bizda emas, balki Hindiston, Polsha, YAponiya, Amerika va boshqa chet el shaharlarida ham namoyish etilmoqda.

GANCH O'YMAKORLIGI TURLARI

Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch o'ymakorligi to'rini tanlash, qo'llash o'z-o'zidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xonaga mayda tekis o'ymakor va unga mos bo'lgan pardozi turi, katta mehmonxonalarga (zallarga) esa yirik yoyma va o'ziga xos ganch o'ymakorligi qo'llaniladi. Ganch o'ymakorligi, yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, qirma, zamini ko'zguli o'yma, zamini rangli o'yma, chizma pardozi, panjarasimon o'yma, zanjira, hajmli o'yma turlaridan iborat. Bundan tashqari, ganch o'ymakorligi turlari zaminli va zaminsiz o'ymalarga bo'linadi.

Zaminli o'yma yirik *o'yma* binolarning fasadlari (tashqi tomoni) ni va katta mehmonxonalarni bezatishda qo'llaniladi. O'yma relefining chuqurligi 2—3 sm bo'ladi. O'yma zamini butun yuzaning 15—30% ni egallaydi. O'yma ganch qora fonda oppoq, faqat soyasi qopqora yaxlit bo'lib ko'rinadi.

Yirik o'yma namunalari qadimdan ishlangan bo'lib, Termiz (IX—X asr), Samarqand (X) va boshqa shaharlardagi o'yma ganch namunalari dalil bo'la oladi. hozir esa binolarning katta xonalari va ba'zi birlarining tashqi tomonifasadi ganch o'ymakorligi bilan bezatiladi. Ganchkorlikda

hajmli — barelefli, haykalsimon, muqarnaslar, qubba, qosh va boshqalar ishlatiladi. Bular hajmli o'ymalar deyiladi. Ularni o'yib ishlanadi.

Eng ko'p qo'llaniladigan o'yma yassi o'ymadir. U intererda ko'p qo'llaniladi. Albatta katta bo'lmagan xonalarda. O'ymaning chuqurligi 1—1,5 sm bo'lib, unga har xil pardoiz turlari beriladi. O'yma naqshning zamini umumiy yuzaning 30-60%ni egallaydi. Unga joyiga moslab pax pardoiz, choka pardoiz, lo'la yoki tabaka pardoiz beriladi.

Qirma pardoiz X asrlardan boshlab ishlatilgan. U Buxoro va Samarqand shaharlarida XVI asrda juda keng qo'llanilgan. Uni, ayniqsa Buxoro ustalari yaxshi bilganlar. *Qirma* binolarning interer va ekstererida ham keng qo'llanilgan.

Qirma — o'yilgan joylarni rangli ganch qorishmasi bilan to'ldirishdir. *Qirma* ikki turga bo'linadi, birinchisi tekis yuzali *qirma*, ikkinchisi relefli *qirma*. Tekis yuzali *qirma* — xuddi devorga grafik usulida bajarilgan naqshga o'xshab ko'rinadi. Bu qirmada zamin ma'lum chuqurlikda chaqa qilib chiqilib, gullar oralig'i qaytadan rang aralashmali ganch bilan to'ldiriladi. Uning yuzasini shuturgardan (tuya bo'yin) va andavada qirib tekislab chiqiladi. Bunda rangli tekis yuzali gullar hosil bo'ladi, buni tekis yuzali *qirma* deyiladi. Relefli qirmada esa yuqoridan tekis yuzali qirmani davom ettirib, gul va novdalarga o'yib, choka pardoiz

beriladi. Qirmani ham o'ziga xos xislatlari bo'lib, u ko'p rangni xohlamaydi.

O'yma zaminini ko'zgu tashkil etgan ganch o'ymakorligining oynavandlik to'rini XIX asrda Buxorolik Usta SHirin Murodov yaratgan. U birinchi bo'lib Buxoro xoni Ahadxonning «Sitorai Mohi-Xosa yozgi saroyidagi «oq uy» (xonai safed) ni bezashda (1913—1914 yillarda) qo'llagan. U erdagi zamini bo'lgan ko'zgu o'yma ganch ajoyib nafis ko'rinishga ega.

O'ymakorlikning bu turi o'ymakorlikning boshqa turlaridan oz mehnat qilib yuqori samaradorlikka erishish bilan ajralib turadi.

Ganch o'ymakorligida o'ymani yanada badiiy va ko'rkam bo'lishi uchun o'yma zamini rangli bo'ladi.

O'yma zaminiga rang berishning ikki yo'li bor.

1. Ganch suvoq ustidan 2 mm dan 5 mm gacha qalinlikda rangli ganch bilan tezda suvaladi. Keyin ustidan gul o'yiladi (oq ganch chiqquncha). So'ngra uni shundoq qoldiriladi yoki pardoz turlari beriladi. Rangli ganch tayyorlashda quruq bo'yoqlar (pigmentlar) dan foydalaniladi.

2. Relif o'yilgandan so'ng elim bo'yoq yoki moy bo'yoq bilan zamini mo'yqalamda bo'yab chiqiladi.

O'ymani rangli bo'yoqlarda bo'yash, ayniqsa XIX asrda juda keng tarqalgan.

CHizma pardozi ganch o'ymakorligining turlaridan biri, ganch yuzasiga tushirilgan naqsh nusxasining ustidan tirnab chizib chiqishdir.

CHizma pardozi, ayniqsa yorug` xonalarda qo'llaniladi. U ko'pincha, hoshiya ishlashda ko'p foydalanilib tirnalgan joyining chuqurligi 2— 3 mm atrofida bo'ladi.

Panjarasimon o'yma binolardagi tokcha va tuynuklarni pardozilashda va qandillar tayyorlashda qo'llaniladi. Bu o'yma o'ymaning boshqa turlaridan farq qilib o'yilayotgan ganch taxtaning ikkinchi tomonidan teshib o'yib o'ziga xos pardozi turi beriladi. Panjarasimon o'yma qadimdan qo'llanib kelinayotgan bo'lib, Varaxsha (VIII asr) binolarida, SHohi Zinda kompozitsiyasida (XIX asr), Mir Arab, Abdulloxon (XVI asr) madrasalarida uning ajoyib namunalarini ko'rish mumkin.

Panjarasimon o'ylla ornamentining tuzilishi o'simliksimon, geometrik va nishon tarzida bo'ladi. hozir zamonaviy binolar, Muqimiy nomli teatr, xalq amaliy san`ati muzeyi, Moviy gumbaz kafesi, metro stantsiyalari va boshqa joylarda panjarasimon ganch o'ymakorligini ko'rish mumkin.

Ganch o'ymakorligida asosiy naqsh bilan hoshiya naqshni bog`lab turadigan naqsh bu, zanjiradir. Zanjira namoyon, tokcha, eshik, deraza,

taxmonlarni, izora (panel) va boshqa joylarining chetiga ishlatiladi. U ramka vazifasini o'taydi. Zanjiraning eni 2—8 sm bo'ladi. Uning naqshi geometrik va o'simliksimon bo'lib, geometrik zanjira ko'proq qo'llaniladi. Zanjira sodda bo'lishiga qaramay, shakllarni o'yganda soya, yorug` va yarim soya holida kishini o'ziga jalb etadi.

Zanjiraning G`ishtin zanjira, arazlagan zanjira, chashmi bulbul, qo'sh zanjira va boshqa turlari bor.

CHuqur o'yma binolarning tashqi tomonini, katta xonalarini bezashda qo'llaniladi. O'ymasining chuqurligi 2—3 sm bo'ladi. O'yilganda zaminga qarab 45° — 60° qiyalikda o'yiladi. Ularni chuqur yoki uncha chuqur olmaslik o'ymaning hajmiga bog`liq. Bunday chuqur o'ymalarga bo'yoq berish talab etilmaydi. Ba`zi vaqtlarda umumiy qolipga bitta rang berilishi mumkin. CHuqurlik qancha past bo'lsa, naqsh shuncha kontrast ko'rinadi. Agar yorug`lik o'yilayotgan yuzaga tik tushsa unda naqsh yarim soyali mayinroq ko'rinadi. CHuqur o'yma «yorug`soya o'yini»ga boy va yaxshi ko'rinishga ega bo'ladi.

Xulosa

Ganch o'ymakorligi san`ati odatda avloddanavlodga o'tgan, begona bolalardan esa o'ta iste`dodli, shu hunarga mehr qo'yganlarigina tanlab olingan. Ganch o'ymakorligi binoning zebu-ziynati hisoblangan. Ilgari har bir ganchkor ustaning o'ziga xos maktabi bo'lib, ganch o'ymakorligini o'rganish nazariy va amaliy mashg`ulotlarga asoslangan. Bu an`ana avloddan avlodga o'tib tobora boyib, takomillashib borgan. Ganch o'ymakor ustalar naqsh kompozitsiyalarining xomaki nusxalarini va axta (buyumning yuziga tushirilgan naqshni maxsus qog`ozga chizib, naqsh yo'llarini igna bilan teshib, nusxa ko'chirish uchun tayyorlangan yupqa qog`ozandaza. Xorazmda axtani ulgi deb yuritiladi) larini yillar davomida takomillashtirib kelganlar. Ular xohlagan vaqtda bu axtalardan ijodiy foydalanganlar. Bu axtalar hattoki otadan bolaga o'tib saqlanib kelinayotgan (meros) boylik hisoblangan.

Ganch o'ymakor ustalar o'z o'g'illariga 7—9 yoshdan boshlab ganch o'ymakorlik sirlarini o'rgatganlar. Ular 8—15 yillab shogird bo'lib yurganlar. Ular o'z o'g'illariga binoning rejasidan tortib pardozlashgacha bo'lgan bosqichlarni o'rgatganlar. Kunduzi binoda amaliy ish bilan shug`ullanib, kechqurun esa nazariy bilim berganlar. Ular kechki payt

binolarning ichki ko'rinishini, geometrik va o'simliksimon naqsh kompozitsiyalarini chizishni, rasm chizishni, chizmachilik va boshqa fanlarni o'rganishgan. Ustalar binolarni ganch o'ymakorligi bilan bezatishning qoidalari bo'lmish, ya'ni bitta masshtabga bo'ysunushlik, xona bichimini va naqsh kompozitsiyasini to'g'ri tanlash, xonaning yorug'ligini hisobga olish, ishni sifatli bajarish va hokazolarga o'rgatar edilar. CHinakam o'ymakor usta bo'lishni orzu qilganlar madrasada tahsil ko'rgan, tarix she'riyat va musiqa sirlaridan voqif bo'lgan, hattoki muzika asboblarini tanish va chalishni biroz bilishi shart bo'lgan. Ayrim ustalar shogirdlari uchun maxsus tartib va odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdidan pokizalikni, ish vaqtida chalQimaslikni, egri va noma`qul ishlarga yaqin yo'lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy turib talab qilganlar. SHularning o'ziyoq xalqimiz qadimqadimdan amaliy san`at turlarini nechoqli ardoqlaganliklarini, ganchkorlik san`atidek mashaqqatli hunarni faqat eng munosib va fidoiy kishilargagina ishonib topshirganliklarini ko'rsatadi.

1918 yili Samarqandda badiiy maktab tashkil etildi. Unda o'quvchilar o'z qo'llari bilan yaratgan ishlarini maktab ko'rgazmalarida namoyish etdilar. 1920 yillarda O'zbekistonda maktabdan tashqari muassasalar, chunonchi o'quvchilar uyi va saroylari, yosh texniklar

stantsiyalari, bolalar temir yo'llari ish boshladi. Bu to'garaklarga xalq amaliy san'ati ustalarini ishga jalb qilindi. Xalq amaliy san'ati turlari yog'och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi, kashtachilik, misgarlik, tasviriy san'at, naqqoshlik, ganch o'ymakorligi va shu singari to'garaklar ochilib, xalq ustalari san'at sirlarini yoshlarga o'rgata boshladilar. Jalil hakimov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov va boshqalar ana shunday ustalardandirlar.

1935—37 yillarda Mahmud Usmonov ana shunday maktablarda, 55bolalar uyida ganch o'ymakorligi to'garagini olib bordi. O'zbekistonning ko'pgina maktablarida ganchkorlik to'garaklari, har xil ko'rgazmalar tashkil etildi. 1937 yilda Jumhuriyat o'quvchilar va o'quvchilar saroyida, keyin esa N. Ostrovskiy nomli Toshkent shahar o'quvchilar va o'quvchilar saroyida ganch o'ymakorligi mashg'ulotini olib bordi. Buxoro, Xiva, Samarqand, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Toshkent va boshqa viloyatlar maktablarida va maktabdan tashqari muassasalarda ganch o'ymakorligi to'garaklari tashkil etildi. Bu to'garaklarni tashkil etishda o'quvchilar va komsomol tashkiloti uyushqoqlik bilan xizmat qildi. Butun mamlakat va jumhuriyat miqyosida ko'rgazmalar tashkil etilib, ko'rgazmalarga o'quvchilar yog'och, ganch,

marmar o'ymakorligi, naqqoshlik, misgarlik va boshqa ishlari bilan qatnashdilar.

1940 yilda O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini saqlash komiteti Samarqandda maxsus quruvchi ustalar tayyorlaydigan kurs tashkil etdi. U erda ganch o'ymakorligi san`ati ham o'rgatilardi. Usta SHirin Murodov ganch o'ymakorligidagi butun tajriba va bilimlarini yoshlarga o'rgatdi. Kursni bitirib chiqqan yoshlar qurilishda, maktablarda hamda maktabdan tashqari muassasalarda ganch o'ymakorligidan to'garaklar olib bordilar. Ulug` Vatan urushi vaqtida maktablardan va sinfdan tashqari to'garaklar mudofaa ishiga qaratildi. yoshlar zavod, fabrikalarda, qurilishda, kolxoz va joylarda otalari, akalari o'rnida ishladilar.

1952 yili Toshkentdagi P. P. Benkov nomli jumhuriyat badiiy bilim yurtida xalq amaliy san`ati bo'limi ochildi. Xalq amaliy san`atining bir necha bo'limlaridan, ganch o'ymakorligi bo'limi ochilib, Davlat mukofoti laureati Usta SHirin Murodov, Usta Toshpo'lat Arslonqulov dars berdilar. Bu bilim yurtida M. Usmonov 1953 yildan 1960 yilgacha ganch o'ymakorligidan dars berdi. 1960 yillardan keyin maktab va maktabdan tashqari ishlar yanada rivoj topdi. o'sha davrlarda to'garaklar ishini amaliy ish bilan bog`lab o'tish avj oldi.

So'nggi yillarda jumhuriyatimiz o'quvchilar uyi, saroyi va maktablarida bu borada katta yutuqlarga erishildi. Bunday to'garaklardan biri Ostrovskiy nomli Toshkent shahar o'quvchilar saroyidagi ganchkorlik to'garagi bo'lib, bu to'garakka 1956 yildan bo'yon Tohir SHaripov rahbarlik qilib kelmoqda. Uning qobiliyatli shogirdlari ganch o'ymakorligi to'garaklarida va ganch o'ymakorlik brigadalarida ishlayaptilar. Bu to'garaklar ganchkorlik san'atining an'analaridan keng foydalanish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, soha bo'yicha o'quvchilarning maxsus malakalarini shakllantirish bilan farqlanadi. Ular rayon, shahar, jumhuriyat va hatto chet ellarda o'tkazilgan bolalar ko'rgazmalarida aktiv qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

1960 yilda Toshkentda 63hunar bilim yurti ochilib, u er ganch o'ymakor ustalar tayyorlaydigan markazga aylandi. Bitirib chiqqan o'quvchilar zamonaviy binolarni bezashda ishlayaptilar.

1960 yillarda pedagog olimlar, o'qituvchilar, o'quvchi vojatiylar, maktabdan tashqari muassasalarning metodistlari, komsomollar bilan sinfdan tashqari tarbiya ishlari sistemalashtirildi.

1963 yilda maktab o'quvchilarining Butunittifoq ilmiy metodik konferentsiyasi bo'lib, unda maktabdan va sinfdan tashqari ishlar hamda o'quvchi o'quvchilar bilan ishlashning forma va metodlarini rivojlantirish

choralari muhokama qilindi. Bu konferentsiyada maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni o'quvchi tashkiloti orqali amalga oshirish kerakligi qayd etildi.

1967 yili mart oyida Butunittifoq leninchi kommunist yoshlar uyushmasi MK o'zining byurosida turli yoshdagi bolalar bilan ishlash metodlarini mazmuni bo'yicha «orientir» rejasini tasdiqladi. SHu tadbirlar asosida maktabdan va sinfdan tashqari to'garaklar yaxshilanib bordi. O'quvchi yoshlarni har xil to'garaklarga jalb qilish yanada ko'paydi. To'garaklar, saroyi va uylari ko'paytirildi, qulay shartsharoitlar yaratildi. O'quvchilar o'rtasida ko'rgazmalar, har xil o'yinlar, muzeylar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar tashkil etildi. Xalq amaliy san`ati turlari bo'yicha ishlayotgan to'garaklar singari ganch o'ymakorligi to'garagi a`zolarining ajoyib ishlari Amerika, Yaponiya, Kanada, CHexoslovakiya, Germaniya Federativ Respublikasida va boshqa ko'pgina davlatlarda namoyish etildi. Bu esa davlatlar orasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashda asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda. hozir o'quvchilarning bo'sh vaqtini unumli, foydali o'tkazish, kelajakda muhim hunar egasi tarbiyali kishilar bo'lib etishishlarida muhim o'rinni egallamoqda. Bu to'garaklarni tugatgan o'quvchilar hozir ganch o'ymakorligidan maktab va maktabdan tashqari muassasalarda, bilim

yurtlarida dars berayaptilar. Ular me`mor, ganch o`ymakor ustalar bo`lib shahrimiz jamoliga husn qo`shmoqdalar. CHunonchi, ganch o`ymakorligi to`garagiga qatnashgan o`quvchilarning bir qanchasi I Rassomlar uyushmasining a`zolaridir. M. Usmonovning shogirdlari Mirziyod Karimov, Abdullaev, Abduraqmon Sultonov, Mirvohid Usmonov, Anvar Po`latov, Mirmahmud Rahmatov, Xabibiddin Murodov, Mo`min Sultonov, Faxriddin hamdaev, Ziyovutdin Yusupov, Rauf Ibodov, Umar Tohirov, Yusuf Odilovlar shular jumlasidandir,

O`zbekiston ganch o`ymakorligi san`ati yuksak darajada rivojlanib, qardosh xalqlar madaniy taraqqiyotiga ham katta ta`sir etmoqda.

hozir ganch o`ymakorligi bilan faqat O`zbekiston emas, balki I ning ko`pgina viloyatlaridagi binolar ham bezatilmoqda. CHunonchi Moskva, Kiev, Donetsk, Sochi, Penza, Voronej va boshqa shaharlardagi jamoat binolari ganch o`ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa o`zbek milliy ganch o`ymakorligi san`atining qardosh xalqlar amaliy san`atiga kirib borayotganining dalilidir. hozir jahon ko`rgazmalarida va jumhuriyatimizga sayoqat qilayotgan chet elliklar hayratlanib, o`zbek milliy ganch o`ymakorligi san`atiga qoyil qolmoqdalar. Ular o`z davlat binolarini, o`z uylarini ana shunday bezashni orzu qilib qolmoqdalar. Ular bu haqdagi iliq so`zlarini ko`rgazmalarni tomosha qilib, esdalik daftariga

yozib qoldirmoqdalar. Kelajakda chet elliklar xalq amaliy san`atiga bizning milliy ganch o`ymakorligimiz bezak sifatida kirib borishi ehtimoldan xoli **emas**.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Azimov E. O'zbekistan naqshu-nigori. -T., G'.G'ulomov nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1987.
2. Bulatov S.S. Ganchkorlik. Toshkent «Mehnat», 1990 yil.
3. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy san`at bezagi, Toshkent: «Mehnat», 1991 yil.
4. Bulatov S. (5-sinf). Ganchkorlik. O'qituvchi, 1997. (lotin yozuvi).
5. Bulatov S. (7-sinf). Ganchkorlik. O'qituvchi, 1997. (lotin szuvi).
6. Zaxidov P.SH. Ferganskaya rospis. Gos. izd. xud. lit. UzSSR. 1990.
7. Mirzaaxmedov M. Materialga badiiy ishlov berish. T:, O'qituvchi, 1980.
8. Qosimov K. Naqqoshlik san`ati (pionerlar uyi va maktab to'garaklari uchun programma). T:, O'qituvchi. 1989.
9. Oripov B. Maktabda chizmachilik va tasviriy san`at kabinetlarini tashkil etish va unda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar. T:, O'qituvchi, 1974.
10. Oripov B. Tasviriy san`at darslarining samaradorligini oshirish omillari. T:, O'qtuvchi. 1978.
11. A.S.Urolov. Mu`jiza yaratish san`ati. T:, Mehnat. 1996.
12. Qosimov K. Naqqrshlik T:.. O'qituvchi. 1982.

13. Qosimov K. Naqqoshlik T:, O'qituvchi. 1990.